

“TASDIQLANGAN”
“KAFIL SUG'URTA” AJ
Boshqaruv raisi F.A.Artikov
2024- yil 5- yanvar

“KASKO-GREEN VIP” ELEKTROMOBIL VOSITALARINI IXTIYORIY SUG'URTA QILISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “KAFIL-SUG'URTA” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yullangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

- mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;
- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili (agar bor bo'lsa) va mobil telefon raqami mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritish Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 933-moddasiga muvofiq sug'urta sirini saqlashga javobgar bo'ladi. «Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Oferta Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlari hamda “KAFIL SUG'URTA” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta summasi doirasida sug'urta to'voni to'lanishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining tomonidan berilgan Litsenziyasi asosida 3-klassga oid Sug'urta turi hisoblanadi.

1.2. Mazkur Oferta shartlari asosida O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan muomala layoqatiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar “KASKO-GREEN VIP” sug'urta turi bo'yicha avtotransport vositalarini ixtiyoriy sug'urtalash orqali sug'urta shartnomasi tuzilishi mumkin.

1.3. Ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlarga va/yoki qo'shimcha kelishilgan, mazkur Ofertaning ajralmas qismi bo'lgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganida Sug'urta qildiruvchiga/Naf oluvchiga yetkazilgan zararni quyida ko'rsatilgan tartibda va hajmda

qoplash majburiyatini oladi, shu shart bilanki, bunda Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertada ko'rsatilgan miqdorda, tartibda va muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

2. ISHLATILADIGAN ASOSIY ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFI:

2.1. **Sug'urtalovchi** – O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining litsenziyasi asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan «KAFIL SUG'URTA» AJ.

2.2. **Sug'urta qildiruvchi** – Sug'urtalovchi bilan mazkur Oferta shartlarida transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish shartnomasini tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

2.3. **Naf oluvchi** – ushbu Ofertaning shartlariga muvofiq sug'urta tovonini olish huquqiga ega shaxs bo'lib, mazkur shaxs sifatida quyidagilar tan olinadi:

- sug'urta qilingan TV mulkdori yoki Sug'urta polisida ko'rsatilgan, qonun, boshqa huquqiy hujjat yoki shartnomaga asoslangan holda mol-mulk saqlanishidan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxs;

- Sug'urta qildiruvchining/TV Haydovchisining fuqarolik majburiyati sug'urta qilinganida – sug'urta qilingan TV dan foydalanish oqibatida hayoti, sog'lig'iga ziyon va/yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan uchinchi shaxslar (jabrlanuvchilar);

- haydovchi va yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilinganida – sug'urta qilingan TV ichida bo'lgan haydovchi va yo'lovchilar, shuningdek sug'urta hodisasi yuz bergan paytda unga kirayotganlar yoki undan chiqayotganlar, ular vafot etgan taqdirda esa – ularning merosxo'rlari.

2.4. **Sug'urta polisi** – Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan real vaqt rejimida shakllantirilgan seriya, raqamiga ega bo'lgan sug'urta qilish amalga oshirilganligini va transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'liq hajmda to'langanidan hamda Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi yoki ularning vakolatli shaxslari tomonidan Tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin beriladi.

2.5. **Sug'urta hodisasi** – mazkur Ofertada nazarda tutilgan, haqiqatda bir vaqtda sodir bo'lgan, Sug'urta polisida ko'rsatilgan Sug'urta davrida va Sug'urta hududida yuz bergan bitta yoki bir nechta hodisa bo'lib, u yuz berishi bilan Sug'urtalovchida sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

2.6. **Sug'urta davri** – Sug'urtalovchida sug'urta tovonini to'lash majburiyatlari amal qiladigan vaqt davri. Sug'urta davri sug'urta mukofoti to'langanidan keyin keladigan kundan e'tiboran boshlanadi va yil davomida amal qiladi (Sug'urta qildiruvchining istagiga ko'ra sug'urta davri bir yildan kam muddatga belgilanishi mumkin, bunda sug'urta mukofoti tanlangan sug'urta davriga to'lanadi).

2.7. **Sug'urta tovon (sug'urta to'lovi)** – mazkur Ofertada bayon qilingan Sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash uchun Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

2.8. **Transport vositalari** bundan buyon matnda TV deb yuritiladi) – ishlab chiqaruvchi zavod to'plamidagi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan, ichki yonuv dvigateli bilan emas, balki mustaqil elektr energiyasi manbai (akkumulyatorlar, yonilg'i elementlari, kondensatorlar va shu kabilar)ning ta'minoti bilan bir yoki bir nechta elektr dvigatellari tomonidan harakatga keltiriladigan elektromobil. Ushbu Shartnomaga muvofiq, gibrid avtomobillar ham elektromobillarga tenglashtiriladi.

Taksi xizmatlarini taqdim etish maqsadlarida foydalaniladigan, prokatga, ijaraga topshiriladigan, test-drayv, musobaqalar uchun foydalaniladigan TV, shuningdek har qanday toifadagi, ishlab chiqarilgan yilidan 10 (o'n) yildan ortiq foydalanilayotgan TV sug'urta qilishga qabul qilinmaydi va Sug'urtalovchi ularni sug'urta qilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

2.9. **Sug'urta qilingan TV** – Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan, sug'urta himoyasi taqdim etiladigan TV.

2.10. **Sug'urta summasi** – sug'urta hodisasi (sug'urta tavakkalchiliklari) yuzasidan Shartnoma bilan aniqlanadigan pul mablag'lari summasi bo'lib, uning doirasida Sug'urtalovchi Sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchiga yoki uni olishga haqli bo'lgan boshqa shaxsga to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

2.11. **Sug'urta qiymati** – TV ning Sug'urta shartnomasi tuzilgan paytda taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan kunda TV bo'lgan joyda uning haqiqiy (bozor) qiymatiga teng bo'lgan qiymati bo'lib, u bilan sug'urta manfaati bog'liq bo'ladi.

2.12. **TV ning nobud bo'lishi (yo'qotilishi)** – Sug'urta qilingan TV ni tiklash uchun xarajatlar uning haqiqiy qiymatiga teng yoki undan ortiq bo'ladigan shikastlanishini, shuningdek Sug'urta qilingan TV ni olib qochilishi natijasida uning yo'qotilishini anglatadi.

2.13. **TV ning shikastlanishi** – YTH, predmetlarning tushib ketishi, va/yoki kelib urilishi, yong'in, portlash, suv toshqinlari, bo'ron, dovul, sel, jala, do'l, kuchli qor yog'ishi, yashin urishi, yer ko'chishi, qor ko'chishi, o'pirilish, yerni cho'kishi, yer osti suvlarining ta'siri va zilzila, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari natijasida Sug'urta qilingan TV ni va/yoki uning alohida qismlari va detallarini jismonan shikastlanishi. Sug'urta qilingan TV ga yuqorida sanab o'tilmagan tavakkalchiliklar natijasida yetkazilgan shikastlanishlar mazkur Oferta shartlari bilan qoplanmaydi.

2.14. **Haydovchi** – TV ni boshqarish uchun tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga va Sug'urta qilingan TV ni boshqarish uchun qonuniy asosga ega bo'lgan, Sug'urta qildiruvchining xodimi (yoki ta'sischisi) bo'lgan jismoniy shaxs.

2.15. **YTH** – yo'lda TV harakatlanishi jarayonida sodir bo'lgan, fuqarolarning o'limi yuz bergan yoki ularning sog'lig'iga ziyon yetkazilgan, TV, inshootlar, yuklar shikastlangan yoki boshqa moddiy zarar yetkazilgan hodisa.

2.16. **TVEFJMSQ polisi** – «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish Ofertalariga muvofiq transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilinganligini tasdiqlovchi belgilangan namunadagi hujjat.

2.17. **Sug'urta hodisasi haqida dalolatnoma** – Sug'urta hodisasi yuz berganligi faktini tasdiqlaydigan va Sug'urta to'voni summasini belgilaydigan, Sug'urtalovchi tomonidan tuziladigan hujjat. Sug'urta hodisasi haqidagi dalolatnoma Sug'urtalovchining, Sug'urta qildiruvchining vakolatli vakillari, shuningdek Sug'urta to'vonini olish huquqiga ega boshqa shaxs tomonidan imzolanadi.

2.18. **Tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi** – transport vositasi Sug'urtalovchining vakillari tomonidan Sug'urtalovchi filiallarining ofislarida ko'zdan kechirilgandan (monitoring) o'tkazilgandan so'ng, Sug'urta qildiruvchi hamda Sug'urtalovchining vakillari tomonidan tuziladigan va imzolanadigan hujjat bo'lib, unda cyg'ypta qilish boshlanishiga qadar TV da mavjud bo'lgan nuqsonlar (agap ular mavjud bo'lsa) ko'rsatiladi va ular bo'yicha Sug'urtalovchi zimmasida majburiyatlar bo'lmaydi. Tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi Sug'urtalovchining har qanday ofisida faqat Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining vakillariga sug'urtaga qabul qilinayotgan TV ning texnik pasporti taqdim etilganida tuzilishi mumkin.

2.19. **Sug'urta hududi** – O'zbekiston Respublikasining hududi.

2.20. **Sug'urta qilingan shaxslar** – Sug'urta qilingan TV da sug'urta hodisasi yuz berishi paytida bo'lgan yoki unga kirayotgan (undan chiqayotgan) haydovchi va yo'lovchilar.

2.21. **Jabrlanuvchilar** – Sug'urta qilingan TV dan foydalanish chog'ida yuz bergan sug'urta hodisasi natijasida hayotiga, sog'lig'iga ziyon va/yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan uchinchi shaxslar. Bunda Sug'urta qildiruvchi, haydovchi va Sug'urta qilingan shaxslardan tashqari har qanday shaxslar uchinchi shaxslar deb tan olinadi.

2.22. **Baxtsiz hodisa** – Sug'urta qilingan TV ning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi natijasida o'zi bilan Sug'urta qilingan shaxslarning tan jarohati olishini yoki ular organizmining ichki va tashqi funksiyalarining boshqacha tarzda buzilishini yoki ularning o'limini keltirib chiqargan, to'satdan yuz bergan qisqa muddatli tashqi hodisa.

2.23. **Transport xarajatlari** – Sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin tashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan transport tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan taksi xizmatlari haqini to'lash uchun Sug'urta qildiruvchining hujjatlar bilan tasdiqlangan qo'shimcha xarajatlari.

3. SUG'URTA HODISASI (TAVAKKALCHILIKLARI)

3.1. Ushbu Ofertaga muvofiq, quyidagilar sug'urta hodisasi bo'lib hisoblanadi:

3.1.1. Sug'urta qilingan TV ni nobud bo'lishi va/yoki shikastlanishi;

3.1.2. Sug'urta qilingan TV dan foydalanish chog'ida uchinchi shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga ziyon va/yoki mol-mulkiga zarar yetkazilganligi uchun Sug'urta qildiruvchining/Haydovchining avtofuqarolik javobgarligini yuz berishi;

3.1.3. Sug'urta qilingan shaxslar bilan YTH oqibatida yuz bergan baxtsiz hodisalar;

3.1.4. Sug'urta hodisasi bilan bog'liq zararni baholash va evakuator xarajatlarning yuzaga kelishi.

4. SUG'URTA SUMMASI VA SUG'URTA MUKOFOTI

4.1. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi.

4.2. Sug'urta tarifi yillik 3,0 foiz miqdorida belgilanadi.

4.3. Sug'urta mukofoti to'lovi Sug'urta qildiruvchi bank kartasi bilan bevosita karta egasi tomonidan amalga oshiriladi. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

4.4. Sug'urta qilingan TV ga Sug'urta summasi Sug'urta qilingan TV ning Sug'urta qiymatidan 100% hisobida belgilanadi. Sug'urta summasi sug'urta qiymatidan past qilib belgilangan taqdirda, sug'urta hodisasi yuz berganida Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga u tomonidan ko'rilgan zararlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasi talablariga muvofiq, sug'urta summasini sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda qoplab beradi.

4.5. Ushbu Ofertaning 3.1.2-bandida nazarda tutilgan sug'urta tavakkalchiligi bo'yicha sug'urta summasi 20 000 000,00 (yigirma million) so'mni tashkil etadi.

4.6. Ushbu Ofertaning 3.1.3-bandida nazarda tutilgan sug'urta tavakkalchiligi bo'yicha Sug'urtalovchining bitta shaxsga nisbatan javobgarlik limiti personal sug'urta summasi miqdori 15 000 000,00 (o'n besh million) so'mni tashkil etadi.

4.7. Sug'urta hodisasi bilan bog'liq zararni baholash xarajat uchun 375 000,00 (uch yuz yetmish besh ming) so'm va evakuator xarajatlari uchun 750 000,00 (etti yuz ellik ming) so'm ajratiladi.

5. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH TARTIBI VA MUDDATI

5.1.1. Mazkur sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadi;

5.1.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda takdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi;

5.1.3. Sug'urta qildiruvchi elektron arizaning to'ldirilishi shart bo'lgan kataklarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma'lumotlarga qat'iy muvofiq holda to'ldiriladi;

5.1.4. Sug'urta qildiruvchi arizada ko'rsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga to'g'ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko'rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo'lmaganida sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta to'lovni to'lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi;

5.1.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

5.1.6. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi hamda Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotining shakllantirilgan summasiga rozi bo'lgan taqdirda, uni to'lashga qadar Sug'urta qildiruvchi mazkur Oferta matni bilan tanishish majburiyatini oladi.

5.1.7. Ofertada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tasdiqlaydi va Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (bundan buyon matnda Ariza deb yuritiladi) Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

5.1.8. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni miqdorini (sug'urta tavakkalchiligini) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

5.1.9. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasidan foydalanishga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

5.1.10. Sug'urta shartnomasi taraflari Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta polisining olinishi Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

5.1.11. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

5.2. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi:

5.2.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

5.2.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

5.2.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi elektron to'lov tizimini tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish uchun tanlangan to'lov tizimining saytiga avtomatik tarzda qayta yo'llanadi;

5.2.4. Sug'urta polisi uchun sug'urta mukofoti to'laganligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, Sug'urta qildiruvchining kiritgan telefon raqamiga Sug'urta polisining seriyasi, raqami va Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi. SMS xabarda sug'urta polisini yuklab olish imkonini beruvchi havola mavjud bo'ladi.

5.2.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

5.2.6. Sug'urta mukofotini bank kartasi bilan to'lash bevosita Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) - karta egasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi.

5.2.7. Sug'urtalovchining axborot tizimida «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Oferta shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

6. MAXSUS SHARTLAR

6.1. Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va ularga rozi bo'ladi:

a) agar Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining yozma rozilgisiz uchinchi shaxsga (uning merosxo'riga yoki huquq vorisiga) Sug'urta qilingan TV dan foydalanish natijasida yetkazilgan zararni har qanday usul bilan qoplagan yoki qoplash yuzasidan va'da bergan bo'lsa, u holda Sug'urta qildiruvchining (fuqarolik javobgarligi Sug'urta polisi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxsning) ushbu harakatlari Sug'urtalovchi uchun sug'urta tovonini to'lash bo'yicha hech qanday majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi;

b) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra zararni tugatishda (bartaraf qilishda, qoplashda va/yoki kompensatsiya qilishda) yoki da'volarni va da'vo arizalarini ko'rib chiqishda, TV ni ko'zdan kechirish dalolatnomalarini imzolashda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kontrda'volarni tuzishda, sud va boshqa mahkamalarda Sug'urta qildiruvchi manfaatlarini taqdim etish huquqi uchun yozma ishonchnoma berishi shart.

6.2. Sug'urtalovchi Sug'urta davri boshlanishiga qadar mavjud bo'lgan TV ning shikastlanishlari uchun javob bermaydi.

6.3. Sug'urtalovchi mazkur Ofertaga ko'ra quyidagilar oqibatida yetkazilgan zararni qoplab bermaydi:

TV ni alkogolli ichimlikdan mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoxud shaxsning aql-irodasiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida, shuningdek transport vositasini boshqarishda qo'llanilishi mumkin bo'lmagan dori preparatlari ta'siri ostida bo'lgan shaxs tomonidan boshqarilishi;

Taksi xizmatlarini taqdim etish maqsadlarida foydalaniladigan, prokatga, ijaraga topshiriladigan, test-drayv, musobaqalar uchun foydalaniladigan TV, shuningdek har qanday toifadagi, ishlab chiqarilgan yilidan 10 (o'n) yildan ortiq foydalanilayotgan TV.

6.4. Agar Sug'urtalovchining yozma roziligiga ko'ra Sug'urta qildiruvchi (Haydovchi) jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi amalga oshirilgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etganidan keyin, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lab beradi. Sug'urta qildiruvchi (Haydovchi) jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni o'z hisobidan qisman qoplab bergan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta to'lovining tegishli qismini Sug'urta qildiruvchiga, qolgan qismini esa Jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga yoki huquq vorisiga) to'lab beradi. Sug'urta tovonini olganligi to'g'risida jabrlanuvchi jismoniy shaxsning (uning merosxo'ri yoki huquq vorisining) tilxati yoki yuridik shaxsning yozma tasdig'i Sug'urta qildiruvchi tomonidan zararni qoplash tartibida amalga oshirilgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lib hisoblanadi.

Bunda:

yuridik shaxsning yozma tasdig'i uning muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

6.7. Maxsus istisnolar:

Quyidagilar sug'urta hodisalari deb tan olinmaydi:

a) TVni, uning alohida qismlari va bog'lovchi qismlarini ulardan foydalanish va/yoki foydalanmaslik oqibatida tabiiy eskirishi;

b) sug'urtalangan TV tovar ko'rinishining yo'qotilishi va ishlab chikaruvchi zavod yo'l qo'ygan nuqson;

v) sug'urtalangan TVni sug'urtaga olingan paytdan keyin Sug'urta qildiruvchi tomonidan qo'shimcha jihozlar qo'yish orqali takomillashtirish bilan bog'liq xarajatlar;

g) Sug'urta qildiruvchi/Haydovchi TVdan foydalanish texnik Ofertalarini buzishi bilan bog'liq xarajatlar.

Sug'urta tovonini to'lashni rad etiladi, agar:

- Sug'urta qildiruvchi/Haydovchi Sug'urta qilingan TV va/yoki sodir bo'lgan hodisa yuzasidan bila turib yolg'on va ishonchli bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim qilgan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi shikastlangan Sug'urta qilingan TV ni Sug'urtalovchining vakili tomonidan ko'zdan kechirilishiga qadar ta'mirlagan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi YTH dan keyin 24 soat ichida amalga oshirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilganligi haqidagi dalolatnomani Sug'urtalovchiga taqdim etmagan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi YTH dan keyin 4 soat ichida alkogol va/yoki toksik va/yoki giyohvand moddalardan va/yoki har qanday turdagi mastlik holatini aniqlash dalolatnomasini Sug'urtalovchiga taqdim etmagan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi/Haydovchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega boshqa shaxs mazkur Oferta bilan o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa.

7. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ushbu Oferta amal qilishi davrida:

7.1.Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) Sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda, uning dublikatini olish;

b) ushbu Oferta doirasida Sug'urtalovchi maslahatlarini olish;

v) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urtalovchidan ushbu Oferta bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda va hajmda bajarilishini talab qilish.

7.2. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi quyidagilarni bajarishi shart:

a) ushbu Ofertaga ko'ra qabul qilingan shartlar, talablar va majburiyatlarga rioya qilishi, sug'urta qilingan TV dan tijorat tashishlarini amalga oshirish maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymasligi;

b) sug'urta qilingan TV ni yong'inga qarshi Ofertalarga qat'iy muvofiq holda saqlashi, TV dan foydalanishning tegishli Ofertalariga rioya qilishi;

v) ushbu Oferta doirasida sug'urta tovonini to'lash talabini Sug'urtalovchiga asoslab berishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisasi yuz berganida, Sug'urtalovchini bu haqda mazkur Ofertada ko'rsatilgan istalgan usulda xabardor qilishi;

g) Sug'urtalovchi da'voni ko'rib chiqish va regress talabini amalga oshirish maqsadida talab qilishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlar, harakatlar va amallarni o'zining hisobidan bajarilishiga rozi bo'lishi;

d) ushbu Oferta doirasida sug'urta tovonini to'lash bo'yicha Sug'urtalovchiga nisbatan talabni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisasi yuz berganida, mazkur Ofertada ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi;

e) yuzaga kelgan vaziyatda ehtimoliy zarardan qutqarish, uni kamaytirish yoki uning oldini olish

bo'yicha oqilona va amalga oshirish mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi. Bunday choralarni ko'ra turib, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi ko'rsatmalariga, agar bunday ko'rsatmalar berilgan bo'lsa, shuningdek Sug'urta qilingan TV ni ishlab chiqargan korxona tavsiyalariga amal qilishi shart;

j) voqea sodir bo'lgan joyda shikastlangan TV ni to'rt tarafidan, shuningdek salon ichidan (agar salonda shikastlanishlar mavjud bo'lsa) fotosuratga/videotasvirga tushirishi;

z) ta'mirlash-tiklash ishlari boshlanishiga qadar, Sug'urtalovchi bilan shikastlangan Sug'urtalangan TV ni ko'zdan kechirish joyi, sanasi va vaqtini kelishib olishi;

i) agar olib qochilgan TV topilgan va/yoki Sug'urta qildiruvchiga qaytarib berilgan bo'lsa, uning uchun olingan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qaytarishi;

k) agar o'g'irlangan (olib qochilgan) TV shikastlangan holatda topilgan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi avval olgan sug'urta tovonini qaytarib beradi. Bunda TV ga shikastlanish oqibatida yetgan zarar miqdori mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan aniqlanadi va ushbu zarar miqdorini chegirib tashlagan holda Sug'urta qildiruvchi avval olingan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qaytarish majburiyatini oladi;

l) agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan da'vo qilish muddatlari davomida Sug'urta qildiruvchining sug'urta tovoniga bo'lgan huquqidan mahrum qiladigan holatlar aniqlansa, olingan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga to'liq hajmda yoki ma'lum bir qismda qaytarishi shart.

7.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

a) Sug'urta qildiruvchidan yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega boshqa shaxsdan ushbu Oferta va qonunchilik bilan ularga yuklangan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;

b) agar sug'urta qildiruvchining taqdim etgan baholash dalolatnomasi (xulosa) dan norozi bo'lsa qayta baholash;

v) sug'urta tovonini to'lashni rad etish, agar:

–Sug'urta qildiruvchi/Haydovchi sug'urta qilingan TV va/yoki sodir bo'lgan hodisa yuzasidan bila turib yolg'on va ishonchli bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim qilgan bo'lsa;

–Sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs ushbu Oferta bilan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa.

7.4. Sug'urtalovchi quyidagilarni bajarishi shart:

a) Sug'urta polisini faqat sug'urta mukofoti to'langanidan keyin va Transport vositasini tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi tuzilganidan keyin berishi;

b) sug'urta hodisasi yuz berganida sug'urta tovonini ushbu Ofertada belgilangan tartibda va muddatlarda to'lashi;

v) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Sug'urta qildiruvchi, Haydovchi, Naf oluvchidan olingan axborotning oshkor qilinmasligiga rioya qilishi shart.

8. SUG'URTA HODISASINI KO'RIB CHIQISH

8.1. Sug'urta hodisasi yuz berganida, Sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega boshqa shaxs quyidagilarni bajarishi shart:

–darhol bu haqda Sug'urtalovchiga har qanday mavjud usul bilan (telefon, elektron xat, faks va hokozolar orqali) xabar berishi;

–hodisa haqida darhol vakolatli organlarga (YHXB, YXB, IIB va boshqalarga) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda xabar berishi;

–Sug'urtalovchining vakiliga shikastlangan sug'urta qilingan TV ni sug'urta hodisasi yuz bergan paytda ko'zdan kechirish uchun taqdim qilishi;

–shikastlangan TV ni Sug'urtalovchining vakili yetib kelishiga qadar joyini o'zgartirmasligi, bundan huquqni muhofaza qilish organlarining vakillari tomonidan yoki jabrlangan shaxslarni qutqarish uchun talab qilingan hollar mustasno.

8.2. Sug'urta tovonini to'lash haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun Sug'urtalovchi yoki boshqa vakolatli shaxs yuz bergan hodisaning holatlarini aniqlash va yetkazilgan zarar miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni yig'ishda Sug'urta qildiruvchiga yordam beradi.

8.3. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra unga sug'urta da'vosini ko'rib chiqish va tartibga solishda, shuningdek aybdor tarafdin zararni qoplashni talab qilish huquqini amalga oshirishda Sug'urta qildiruvchining manfaatlarini himoya qilish huquqi uchun yozma ishonchnoma berishi shart.

8.4. Sug'urtalovchini sug'urta hodisasi haqida o'z vaqtida xabardor qilinmagan yoki hodisa joyiga Sug'urtalovchining vakili chaqirilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

8.4.1. ushbu Ofertaning 3.1.1-bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisasida:

a) sug'urta polisi yoki uning nusxasi;

b) yuz bergan hodisaning holatlarini tekshirishga vakolati bo'lgan tegishli organlardan hodisa sabablari va tafsilotlari ko'rsatilgan holda olingan materiallar (qaror, ayblov xulosasi, sud qarori yoki boshqalar);

v) Sug'urta qilingan TV ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma (texnik pasport) nusxasi, agar u Sug'urta qilingan TV bilan birga o'g'irlanmagan yoki yong'in vaqtida yonib ketmagan bo'lsa;

g) Haydovchining pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjati, sug'urta qilingan TV ni egasining nomidan boshqarish huquqi uchun ishonchnoma yoki ishonchnomaga tenglashtirilgan boshqa hujjatning nusxalari (o'g'irlanmagan yoki yong'in vaqtida yonib ketmagan bo'lsa);

d) Sug'urtalovchining tanloviga ko'ra, sug'urta qilingan TV ni tiklash uchun zarur bo'lgan barcha ishlar ro'yxati, ehtiyot qismlar va materiallarni ko'rsatgan holda baholovchi tashkilot tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash uchun kalkulyatsiya/hisoboti.

Zarar miqdori ushbu Ofertaning 3.1.1-bandi bo'yicha belgilangan sug'urta summasining 5% (besh foizdan) oshmagan va zarar uchinchi shaxslar ishtirokida YTH, yong'in, portlash natijasida yetkazilmagan taqdirda, mazkur bandning «b» kichik bandida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etish shart emas.

8.4.2. ushbu Ofertaning 3.1.2-bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisasida:

a) tegishli sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki hukmi;

b) uchinchi shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar;

v) transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish polisining nusxasi.

8.4.3. ushbu Ofertaning 3.1.3-bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisasida:

a) tegishli sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki hukmi;

b) (haydovchi va/yoki yo'lovchilarning) sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasining nusxasi;

v) sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin birinchi tibbiy yordam ko'rsatgan tibbiyot, davolash muassasalarining hujjatlari (haydovchi va/yoki yo'lovchining kasallik tarixidan ko'chirma);

g) haydovchi, yo'lovchi va/yoki merosxo'rlarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;

d) haydovchi va/yoki yo'lovchi vafot etgan taqdirda – o'lim haqidagi guvohnoma nusxasi.

8.4.4. Ushbu Ofertaning 3.1.4-bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berishi (transport xarajatlari yuzaga kelishi) munosabati bilan Sug'urta qildiruvchining sug'urta tovonini to'lash haqidagi talablarini ko'rib chiqish uchun, Sug'urta qildiruvchi o'ziga taksi xizmatlari va/yoki TV ni ijaraga olish xizmatlari ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnomalar, kvitansiyalar, hisob-varaq fakturalar va boshqalarni) taqdim qilishi kerak.

Sodir bo'lgan hodisa holatlarini aniqlash maqsadida Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan sug'urta hodisasiga taalluqli bo'lgan boshqa hujjatlarni ham talab qilish huquqiga ega.

8.5. Sug'urtalovchi o'z vaqtida xabardor qilinganida to'plangan materiallarga asoslangan holda sug'urta hodisasi yuz bergan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) kundan kechikmay sug'urta hodisasini tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi. Sug'urta hodisasi haqida o'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, sug'urta tovonini to'lash haqidagi talab bilan murojaat qilingan paytdan e'tiboran 15 (o'n besh) kun ichida qaror qabul qilinadi. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi tan olingan taqdirda, Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuziladi, unda to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovonni summasi belgilanadi.

8.6. Sug'urta hodisasi tan olinmagan taqdirda, Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish haqidagi qarori sug'urta tovonini to'lash haqidagi talab bilan murojaat qilingan paytdan e'tiboran 15 (o'n besh) kundan kechikmay Sug'urta qildiruvchiga/Naf oluvchiga yozma ravishda xabar qilinadi va u rad etish asoslantirilgan sabablarni ichiga olishi kerak.

9. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI

9.1. TV shikastlanganda, talon-toraj qilinganda yoki nobud bo'lganda, sug'urta hodisasi tan olinganidan keyin sug'urta tovonini ko'rilgan zarar miqdorida, ammo Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan holda belgilanadi.

9.2. Sug'urta qilingan TV to'liq nobud bo'lganda, ilgari amalga oshirilgan sug'urta tovonlarini chegirib tashlangan holda Sug'urtalovchi zararni o'z xohishiga ko'ra sug'urta summasi miqdorida qoplab beradi yoki o'z hisobidan xuddi shunday rusumdagi va ishlab chiqarilgan yildagi TV ni tashqi nuqsonlarsiz texnik soz holatda taqdim etadi. Bunda shikastlangan sug'urta qilingan TV Sug'urtalovchiga berilishi lozim.

9.3. Sug'urta qilingan TV shikastlanganda Sug'urtalovchi sug'urta qilingan TV ta'mirlanishini tashkil qiladi va sug'urta qilingan TV ni tiklash ta'mirlanishini o'tkazish uchun zarur bo'lgan miqdorda naqd pulsiz tartibda pul mablag'lari bilan sug'urta tovonini to'laydi.

9.4. Bunda Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash bilan bir qatorda, Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan moddiy zararni baholash to'g'risidagi hisobot Sug'urtalovchi tomonidan tan olingan taqdirda, sug'urta qilingan TV ga yetkazilgan zararni baholash bilan bog'liq bo'lgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni ham sug'urta hodisasi yuz berishi kuniga belgilangan bitta bazaviy hisoblash miqdori doirasida qoplaydi, shuningdek sug'urta qilingan TV texnik nosoz bo'lganda yoki shikastlanganda, agar u sug'urta hodisasi natijasida yurmaydigan holda bo'lsa, turar joyigacha (garajgacha) transportirovka (evakuatsiya) qilishga doir xarajatlarni sug'urta hodisasi yuz berishi paytiga belgilangan ikkita bazaviy hisoblash miqdori doirasida qoplaydi.

9.5. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchiga taqdim etilgan moddiy zararni baholash to'g'risidagi hisobot bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi bilan yetkazilgan moddiy zararni baholash bo'yicha mustaqil ekspertiza o'tkazishga haqli bo'ladi.

9.6. Sug'urta qilingan TV ning old shamol to'sadigan oynasi predmetlarning urilishi yoki tushib ketishi natijasida shikastlangan yoki parchalangan taqdirda, sug'urta tovonini sug'urta summasidan 2% gacha (ikki foizgacha) miqdorda to'lanadi. Bunda mazkur holat bo'yicha sug'urta tovonini jami sug'urta davri uchun 1 (bir) marta va vakolatli organlarning hujjatlarini taqdim etish talab qilinmagan holda to'lanadi.

9.7. Sug'urta qilingan TV ning old shamol to'sadigan oynasi shikastlangan yoki parchalangan boshqa hollarda (shu jumladan YTH, uchinchi shaxslar yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari natijasida) sug'urta tovonini to'lash masalasini ko'rib chiqish uchun sug'urta hodisasi faktini tasdiqlaydigan vakolatli organlarning hujjatlari talab qilinadi.

9.8. Ushbu Ofertaning 3.1.2-bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan to'lanadigan sug'urta tovonini fuqarolik majburiyati bo'yicha sudning qarori bilan chiqarilgan summa va TVEFJMSQ polisi bo'yicha jabrlanuvchilar olishi uchun belgilangan sug'urta tovonini summasi o'rtasidagi farqqa teng bo'lgan summada aniqlanadi va quyidagi tartibda aniqlanadi:

9.1.1. Uchinchi shaxslarning (jabrlanuvchining) hayoti yoki sog'lig'iga ziyon yetkazilishi natijasida sug'urta tovonining miqdori Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash Ofertalari bilan tasdiqlangan Jabrlanganning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha to'lovlar jadvaliga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008- yil 24- iyundagi 141-sonli qarori bilan tasdiqlangan TVEFJMSQ Ofertalariga 7-ilova, bundan buyon To'lovlar jadvali deb yuritiladi) binoan belgilanadi. Bir nechta uchinchi shaxslarning sog'lig'i va hayotiga ziyon yetkazilgan taqdirda, ularning har biri uchun sug'urta tovonining miqdori, har bir uchinchi shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan ziyonning darajasiga mutanosib ravishda, ammo avtofuqarolik javobgarligi uchun Sug'urta polisida belgilangan sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan miqdorda aniqlanadi.

9.1.2. Uchinchi shaxsga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi tomonidan uchinchi shaxsga yetkazilgan moddiy zarar miqdorida, Sug'urta qildiruvchiga sud qarori bilan belgilangan summada, ammo Sug'urta polisida fuqarolik javobgarligi uchun belgilangan sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan holda, TVEFJMSQ Polisi bo'yicha olgan sug'urta tovonini chegirib tashlagan holda belgilanadi. Bir nechta uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazilgan taqdirda, uchinchi shaxslarning har biriga sug'urta tovonining miqdori uchinchi shaxs mulkiga yetkazilgan zararga mutanosib ravishda, Sug'urta polisida fuqarolik javobgarligi uchun belgilangan sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan miqdorda aniqlanadi.

9.9. Haydovchi va yo'lovchilarning hayoti va sog'lig'iga ziyon yetkazilgan taqdirda, sug'urta tovonining miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

- **engil darajadagi tan jarohati uchun – personal sug'urta summasidan 25% miqdorda;**
- **o'rtacha darajadagi tan jarohati uchun – personal sug'urta summasidan 50% miqdorda;**
- **og'ir darajadagi tan jarohati uchun – personal sug'urta summasidan 75% miqdorda;**
- **vafot etgan taqdirda – personal sug'urta summasidan 100% miqdorda.**

9.10. Sug'urta qilingan TV shikastlanishi natijasida unda ta'mirlash-tiklash ishlari o'tkazilishi davrida yuzaga kelgan transport xarajatlari quyidagi tartibda qoplab beriladi:

«**Taksi xizmati**» **bo'yicha:** Sug'urtalovchi Naf oluvchining xarajatlarini taksi xizmati uchun belgilangan sug'urta summasi miqdoridan har bir foydalangan kun uchun 1/30 qismi chegarasida va sug'urta qilingan TV da ta'mirlash-tiklash ishlari yakunlanadigan kunga qadar, ammo 30 kundan ortiq bo'lmagan holda xamda 500 000 sumdan oshmagan miqdorida qoplab beradi (tasdiklovchi xujjatlar taqdim etiladi). Sug'urta qilingan TV ni topshirish dalolatnomasi ta'mirlash-tiklash ishlari yakunlanishini tasdiqlaydigan hujjat bo'lib hisoblanadi;

9.11. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonni Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan paytdan e'tiboran 3 (uch) kun ichida Naf oluvchining bankdagi hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

9.12. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni (ziyonni) qoplash uchun amalga oshirilgan har bir to'lov yoki ta'mirlash-tiklash ishlarining qiymati sug'urta summasini bunday to'lov summasiga kamaytiradi.

10. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

10.1. Taraflar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

10.2. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun, agar majburiyatlarni bunday bajarmaslik yengib bo'lmaydigan kuch holatlari (fors-major) natijasida kelib chiqqan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi. Yengib bo'lmaz kuch holatlari ta'siriga uchragan Taraf mazkur holatlarning yuzaga kelganligi va ularning ta'sirining davom etishi ehtimoli haqida boshqa Tarafni darhol xabardor qilishi kerak.

10.3. Mazkur Oferta asosida berilgan Sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchiga uning yozma arizasi asosida Polisning dublikati beriladi, undan keyin yo'qotilgan Sug'urta polisi bekor qilingan deb hisoblanadi va u bo'yicha sug'urta tovonni to'lanmaydi.

11. SUG'URTA SHARTNOMASINING MUDDATIDAN ILGARI BEKOR BO'LISHI

11.1. Sug'urta polisining amal qilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda bekor qilinadi.

11.2. Polis Sug'urta qildiruvchining yozma arizasiga binoan istalgan vaqtda muddatdan oldin bekor qilinishi mumkin.

11.3. Sug'urta mukofotini to'liq/qisman qaytarish Sug'urta qildiruvchi tomonidan Polis Sug'urtalovchiga qaytarilishi sharti bilan hisobvaraqqa (plastik kartaga, bankdagi hisobvarag'iga yoki talab qilib olinadigan hisobvaraqqa) pul mablag'larini bir yo'la o'tkazish yo'li bilan quyidagi tartibda va holatlarda amalga oshiriladi:

11.4. Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta polisida ko'rsatilgan Polisning amal qilish muddati boshlanishidan avval sug'urta qilishdan voz kechish haqida ma'lum qilsa – Sug'urtalovchi unga to'langan sug'urta mukofotini to'liq hajmida qaytaradi.

11.5. Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta polisida ko'rsatilgan Polisning amal qilish muddati boshlanganidan so'ng sug'urta qilishdan voz kechishi haqida ma'lum qilsa – Sug'urtalovchi unga to'langan sug'urta mukofotini tugamagan sug'urta davri uchun belgilangan hajmida qaytaradi.

11.6. Sug'urta mukofoti quyidagi holatlarda qaytarilmaydi:

11.6.1. Ushbu Ofertada ko'rsatilgan sug'urta davri mobaynida sug'urta hodisasi ro'y berib, Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini bajargan yoki bajarayotgan bo'lsa;

11.6.2. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri tugagandan so'ng, sug'urta qilishdan voz kechish haqida ma'lum qilganda.

12. SUBROGASIYA

12.1. Sug'urta natijasida qoplangan zararni yetkazilishiga javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan Sug'urta qildiruvchining/Naf oluvchining talab qilish huquqi sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga u tomonidan to'langan summa doirasida o'tadi. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga barcha hujjatlar va dalillarni berishi va Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqini u tomonidan amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni xabar qilishi shart.

12.2. Agar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zararni yetkazilishiga javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechgan bo'lsa yoki mazkur huquqni Sug'urta qildiruvchining/Naf oluvchining aybiga ko'ra amalga oshirish mumkin bo'lmasa,

Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan to'liq yoki tegishli qismida ozod qilinadi va ortiqcha to'langan tovon summasi qaytarilishini talab qilishga haqli bo'ladi.

13. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

13.1. Ushbu Ofertada nazarda tutilgan masalalar bo'yicha nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Taraflar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralarini ko'radi.

13.2. Mazkur Ofertadan kelib chiqadigan, shu jumladan uning ijrosi, buzilishi, bekor qilinishi yoki haqiqiy emasligiga taaluqli bo'lgan nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan hal qilinishi va ko'rib chiqilishi lozim.

14. OFERTANING KUCHGA KIRISH TARTIBI

14.1. Mazkur Oferta "KAFIL-SUG'URTA" AJ Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

14.2. Mazkur Ofertaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish "KAFIL-SUG'URTA" AJ Boshqaruv raisi buyrug'i bilan amalga oshiriladi.